

“GULISTON” MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O‘TKAZILDI



“GULISTON” MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O‘TKAZILDI

Bugun, 5-noyabr kuni 1-sektor shtabida Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev rahbarligida fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabul o‘tkazildi. Unda shahardagi barcha mutasaddi korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirok etdi. O‘tkazilgan qabulda 70 nafar fuqarolar tomonidan 80 dan ortiq murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan aksariyati communal sohalarda, shuningdek subsidiya tartibida uy-joy olish, imtiyozli kredit olish, moddiy yordam, tibbiy yordam, ishga joylashish va boshqa masalalardagi fikrlari tinglandi. Shahsiy va huquqiy masalalarda ham murojaat qilgan fuqarolarga o‘z o‘rnida huquqiy tushuntirishlar berildi. Fuqarolar tomonidan qilingan murojaatlarning ayrimlari joyida ijobiy yechimini topdi.

Qabul davomida yechimi vaqt talab etadigan masalalar bo‘yicha mas‘ullarga ko‘rsatma va topshiriqlar berilib, ijrosi qat‘iy nazoratga olindi.

